



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./VSZY7286>
UDC: 349.6(045)(575.1)

FLORA QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Maxkamov Durbek Nematovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori v. b, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-6918-4616
e-mail: durbekmakhamov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'simlik dunyosini tartibga solishga qaratilgan konsepsiyalar, xorijiy davlatlarning o'ziga xos tajribalari tahlil qilingan. Shu bilan birga, raqamlashtirish va sun'iy intellekt rivojlanishining flora qonunchiligiga ta'siri va kelajakdagi istiqbollari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, amaldagi qonunchilik holati, olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganilgan. Bioxilma-xillikni saqlash va barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-huquqiy aspektlari, o'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirishning zarurati, biologik xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy jihatlari bayon etilgan. Raqamli iqtisodiyot doirasida innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasiga joriy etishning huquqiy jihatlari, sun'iy intellekt orqali tartibga solish konsepsiyasi asosida tashkil etish masalalari xususida fikrlar bayon etilgan. Qonunchilikda o'simlik dunyosi obyektlariga tajovuz qilganlik uchun belgilanadigan huquqiy (ma'muriy va jinoiy) javobgarlik choralari qo'llanishi va xorijiy tajriba bilan taqqoslagan holda ilmiy va amaliy xulosalar keltirilgan. Bundan tashqari, o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish qonunchiligidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari to'g'risida mualliflik xulosalari berilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik dunyosi obyektlari, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, huquqiy rejim, yashil zona, barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

ПЕРСПЕКТИВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О РАСТИТЕЛЬНОМ МИРЕ

Махкамов Дурбек Нематович,
доктор юридических наук, и. о. профессора
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются концепции и специфический опыт зарубежных стран, направленные на регулирование растительного мира. В то же время с научной точки зрения обсуждается влияние цифровизации и развития искусственного интеллекта на законодательство о растительном мире и его будущие перспективы. Также подробно изучено современное состояние законодательства, научно-теоретические мнения учёных, вопросы совершенствования законодательства в этой сфере. Рассмотрены теоретические и правовые аспекты реализации задач сохранения биоразнообразия и устойчивого развития, необходимость зонирования для охраны растительного мира, обеспечения биологической безопасности. В рамках цифровой экономики были высказаны мнения по правовым аспектам внедрения современных и передовых информационно-коммуникационных технологий в области охраны и использования растительного мира, а также по вопросам организации регуляторного консорциума посредством искусственного интеллекта. Представлены научно-практические

выводы о применении правовых (уголовно-административных) мер ответственности, установленных в законодательстве за посягательство на объекты растительного мира, в том числе в сравнении с зарубежным опытом. Кроме того, автор делает выводы по существующим проблемам и их решениям в законодательстве об охране объектов растительного мира.

Ключевые слова: объекты растительного мира, искусственный интеллект, цифровизация, правовой режим, зелёная зона, концепция об устойчивом развитии.

PROSPECTS AND CURRENT TRENDS IN IMPROVING FLORA LEGISLATION

Makhkamov Durbek Nematovich,

Acting professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Science (DSc) in Law

Abstract. This article analyzes concepts aimed at regulating flora and the specific experience of foreign countries. At the same time, the impact of digitalization and the development of artificial intelligence on flora legislation and its future prospects are scientifically discussed. The current state of legislation, scientific and theoretical opinions of scientists, and issues of improving legislation in this area were also studied in detail. Theoretical and legal aspects of implementing the tasks of biodiversity conservation and sustainable development, the importance of information and communication technologies in the regulation of flora, the need for zoning for the protection of flora, and legal aspects of ensuring biological safety are considered. Within the framework of the digital economy, opinions were expressed on the legal aspects of the introduction of modern and advanced information and communication technologies in the field of protection and use of flora, as well as issues of organizing a regulatory consortium through artificial intelligence. The application of legal (criminal and administrative) measures of responsibility for encroachment on objects of flora in legislation and scientific and practical conclusions in comparison with foreign experience are presented. In addition, the author's conclusions about existing problems and their solutions in legislation on the protection of flora objects are presented.

Keywords: objects of flora, artificial intelligence, digitalization, legal regime, green zone, concept of sustainable development.

Kirish

O'simliklarni muhofaza qilishning qat'iy choralari, ularning huquqiy tartibini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish masalasi xalqaro hamjamiyat va muayyan davlatlar, ularning ittifoqi tomonidan atrof-muhitni himoya qilishning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. XX asrning so'nggi yillarida xalqaro hamjamiyat va qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi tomonidan ijobiy qadamlar tashlangani kuzatilsa-da, huquqiy va tashkiliy faoliyatning mazkur yo'nalishi suv, atmosfera iqlimi, hayvonot dunyosi va boshqalarni muhofaza qilishga nisbatan kamroq faollik ko'rsatmoqda.

Gen muhandislik faoliyatining rivojlanishi ortidan atrof-muhitga nisbatan yangi jiddiy xavflarning vujudga kelishi, tabiiy resurslar bilan noqonuniy savdo qilishning keng tarqalishi, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga kompleks yondashuvning joriy etilishi, barqaror rivojlanish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi, shu bilan birga, o'simlik dunyosini saqlab qolishga ancha ilgari yuzaga kelgan va bizning kunlarda ko'lami yanada kengayib borayotgan omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolada ilmiy bilishning ilmiy va mantiqiy uslublaridan foydalanil-

gan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llangan. Shu bilan birga, empirik statistik materiallar, tarixan shakllangan ma'lumotlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish huquqiga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari va mavjud muammolarni quyidagi yo'nalishlarda bayon etishimiz mumkin. Bunda quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

- 1) o'simliklarning muhofazasini ta'minlash uchun zonalashtirish;
- 2) qat'iy cheklov va taqiqlar o'rnatish;
- 3) barqaror rivojlanish konsepsiyasidan foydalanish;
- 4) javobgarlikni kuchaytirish;
- 5) xalqaro konvensiyalarda belgilangan qoidalarni modernizatsiya qilish;
- 6) axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'sirini baholash;
- 7) yangi ilmiy-nazariy qarashlarning kirib kelishi;
- 8) ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasiga sun'iy intellektni joriy qilish;
- 9) ekologik qonunchilikka kiberxavfsizlik masalalarini joriy etish.

Tadqiqot natijalari tahlili

1. O'simliklarni muhofaza qilishning muhim chorasi ularni yaxlit hududga ajratgan holda muhofazasini ta'minlash, ya'ni zonalashtirishdir.

Ayniqsa, shahar aholi punktlarida o'simlik dunyosini muhofaza qilish uchun zonalashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u foydalanishning belgilangan maxsus shartlariga ega bo'lgan zonalarini ajratishni ko'zda tutadi.

Ta'kidlash joizki, bu zonalashtirish o'rmon sifatida yaratilgan maqomdagi hududdan ekologik, iqtisodiy fuksiyalariga ko'ra tubdan farq qiladi. Ekologik maxsus zonalashtirish natijasida vujudga keladigan ma'lum bir hududda texnogen yoki tabiiy omillar, shu jumladan, landshaft elementlari, suv obyekt-

lari va atmosferaning yer sirti qatlamlari ta'siri ostida atrof-muhit obyekti va subyektlarining buzilishi yoki yomonlashishi holatlari qayd etilishi ta'minlanadi [1].

Shundan kelib chiqqan holda, o'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirish davlat tomonidan o'simlik obyektlarini barcha tarkibiy qismlarini himoya qilish va muhofaza qilishni, shuningdek, fuqarolarning ekologik toza muhitda yashashga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishni, jumladan, sog'liq va farovonlikka zarar yetkazishga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashga qaratilgan ma'muriy, iqtisodiy, huquqiy va ekologik xususiyatdagi belgilangan chora-tadbirlar majmui sifatida tushunishimiz lozim. O'simlik obyektlarini muhofaza qilishni zonalashtirish maxsus muhofaza qilishning tabaqalashtirilgan rejimini tashkil etish va bunday zonalarining maqsadini aniqlashni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan o'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirish o'simlik dunyosi obyektlarining huquqiy rejimini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu jihatdan yuridik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, yagona qonuniy rejimga ega bo'lgan ishtirokchilar uchun turli xil huquqiy rejimlarni o'rnatish uchun ishlatiladi [2].

Huquqiy rejimlardagi bu farq nomuayyan shaxslar doirasiga taalluqli bo'lib, unda asosan takroran foydalanish uchun mo'ljallangan xo'jalik va boshqa faoliyatni taqiqlash yoki cheklashlarni belgilashda namoyon bo'ladi.

O'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirish bilan bog'liq taqiqlar har qanday munosabatlarni, masalan, daraxtlarni kesish, chorva mollarini o'tlatish, u yoki bu xavfli obyektlarni ma'lum bir masofada joylashtirmaslik yoki qurmaslik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur zonalarda taqiqlar muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik bo'yicha o'rnatiladi. Bunga

yaqqol misol sifatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni va ularning qo'riqlanma zonalari, kurort tabiiy hududlar, baliq xo'jaligi zonalari va rekreatsiya zonalari, maxsus suv muhofaza zonalarini aytib o'tish joiz.

O'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirishning ikkita funksiyasi mavjud:

birinchi funksiya – fuqarolarning toza ekologik muhitda yashashini ta'minlovchi tabiiy muhitdagi o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish;

ikkinchi funksiya – kamayib borayotgan o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish maqsadida ekologik tahdid va inqirozdagi hududlarning xavfsizligini ta'minlash.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda alohida hududlarni ajratish asosiy element hisoblanadi va ushbu funksiyalarni amalga oshirishda ajratiladigan hudud (yer)ning ekologik holati birlamchi vositadir.

Masalan, birinchi funksiyani amalga oshirish uchun aholi punktlariga mo'ljallangan yerlarning shahar aholi punktlarida joylashgan bog'lar (parklar), dam olish maskanlari, aholi yashaydigan umumiy foydalanishdagi yerlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Ikkinchi funksiyani amalga oshirish uchun antropogen (qurilish) yoki ekologik ofat ta'sirida tobora kamayib ketayotgan o'simlik dunyosi obyektlari mavjud bo'lgan hududlarni ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. MDH mamlakatlari qonunchiligining qiyosiy tahlili "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga bioxilma-xillikni saqlash va barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha alohida moddalar kiritish, o'simlik dunyosini mineral o'g'itlar, o'sish regulyatorlari va boshqa vositalaridan foydalanilgan holatlarda muhofaza qilish bo'yicha alohida tartibni belgilash, monitoring o'tkazish, o'simlik dunyosi obyektlarini sertifikatlash, yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni tayyorlash va sotishni tartibga solish, o'simlik dunyosi obyektlari bilan

muomala qilish yuzasidan qat'iy cheklov va taqiqlar o'rnatish maqsadga muvofiq.

3. Ma'lumki, mamlakatimizda o'simlik dunyosi boy salohiyatga ega. Bu salohiyatni huquqiy muhofazalash uchun barqaror rivojlanish konsepsiyasidan foydalanish mumkin, bu esa jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini muvozanatga keltirishga xizmat qiladi.

Bu konsepsiya qoidalarini o'simlik dunyosini huquqiy muhofazalash sohasiga tatbiq qilish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish lozim:

a) barqaror rivojlanish milliy strategiyasini qabul qilish;

b) uni amalga oshirishni ta'minlaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish;

d) o'simlik dunyosining muammoli obyektlari va hududlari to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yaratish;

e) o'simlik dunyosi obyektlari monitoringini o'tkazish;

f) jamiyatga o'simlik dunyosi qiymati va uni huquqiy jihatdan muhofaza qilish zarurligini anglatish yuzasidan choralar ko'rish;

g) BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha Komissiyasi bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy qilish muammolarini hal qilish bo'yicha xalqaro tadbirlar o'tkazilishini ta'minlash.

4. Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish kiritish va unda o'simlik dunyosi obyektlarini noqonuniy kesish, shikastlash va yo'q qilish, o'rmonlar va o'simlik dunyosining boshqa obyektlarida yong'in xavfsizligi talablarini buzish uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim.

5. O'zbekiston Respublikasining o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonunchilikda muhofaza qilinadigan obyektlar tartibini kengaytirish, o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarda bel-

gilangan qoidalarini modernizatsiya qilish, o'simlik dunyosi obyektlariga tajovuz qilganlik uchun belgilangan ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy taqiqlarlarni takomillashtirish muhim masaladir.

Zero, xorijiy mamlakatlarda ekologik talablarni buzganlik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralari ham kodifikatsiyalangan hujjatlar, ham maxsus ekologik qonunchilik, ham xo'jalik qonunchiligi asosida belgilanadi. Masalan, Avstriya [3], Belarus [4], Bolgariya [5], Germaniya [6], Gollandiya [7], Ispaniya [8], Xitoy [9], Latviya [10], Polsha [11], Tunis [12], Tailand [13], Ukraina [14], Shveysariya [15], Yaponiya [16] va boshqa qator davlatlar jinoyat kodekslarida mavjud jinoiy-huquqiy taqiqlar tahlili atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga ko'proq e'tibor qaratayotganini ko'rsatdi [17]. Jinoiy-huquqiy taqiqlar mazmuni va o'simlik olami, uning elementlariga tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyat belgilarini tahlil qilishga o'tishdan oldin ta'kidlash joizki, bu taqiqlar, odatda, atrof-muhitga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi maxsus bo'limga joylashtirilgan (Belorus JK, Latviya JK, Germaniya JK, Polsha Respublikasi JK va b).

Lekin xorijiy davlatlar qonunchiligi jinoiy javobgarlik choralarini jinoyat kodekslaridagina emas, balki maxsus ekologik qonunlar yoki xo'jalik faoliyatini tartibga soladigan qonunlarda ham nazarda tutadi. Bu kabi hujjatlar, ayniqsa, Gollandiya, Polsha, Germaniya va boshqa ko'plab mamlakatlarda talaygina.

Shundan kelib chiqib, xorijiy qonunchilikda o'simlik dunyosi obyektlariga tajovuz qilganligi uchun belgilanadigan huquqiy (ma'muriy va jinoiy) javobgarlik choralari keng yoritilgani to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Ular o'simliklarni zararkunandalar va kasalliklar, kimyoviy moddalar va radiatsiyaning salbiy ta'siri, begona turlarning kirib kelishidan muhofaza qilishni tartibga soladigan milliy qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga rioya qilishnigina emas, bioxilma-xillikni saqlash, o'rmonlar-

ni muhofaza qilish, fitosanitariya xavfsizligi to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlar ijrosini ham ta'minlaydi [18].

6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko'rilmagan rivoji davlat boshqaruvi va qonunchilik tizimiga ham jadal kirib bormoqda. Global aloqa va muloqot vositasi bo'lgan internetning global jihatdan, davlat jamiyat va shaxs hayotiga ta'siri nihoyatda muhimki, mazkur jarayon nafaqat ko'plab yo'nalishlarda tegishli chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, balki dunyo davlatlari va xalqaro hamjamiyat tomonidan muhim tashkiliy chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy munosabatlarning muhim, tezkor, ayrim hollarda prognoz qilish qiyin bo'lgan holda rivoji hozirgi zamon huquqi oldiga juda murakkab vazifalarni qo'yishi shubhasiz.

Shu munosabat bilan yangi global ekologiya huquqi rivoji qanday tendensiyalarga ega degan savol tug'ilishi tabiiy. Ilmiy mambalarda ko'rsatilganidek, bugungi kunda huquq rivojining global miqyosdagi tendensiyalari sirasiga globallashuv jarayonlari va axborot kommunikatsiya vositalarining misli ko'rilmagan rivoji davlatlar va xalqlar o'zaro hamkorlik munosabatlarining rivojlanishiga kuchli turtki bo'lmoqda [19].

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga asosan, biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlat axborot tizimini joriy etish va qo'llash, mansabdor shaxslar, shuningdek, barcha aholining xabardorligini yanada oshirish maqsadida biologik jihatdan o'ta xavfli obyektlarning turg'un holda ishlash sharoitlari hamda ularda favqulodda holatlar vujudga kelishida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni boshqarishning innovatsion telekommunikatsiya tuzilmasini rivojlantirish, biologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida ma'lumotlarni himoya qilish vositalari, usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish kabi masalalarni hal etish belgilangan.

Shu jihatdan olib qaraganda, biologik xilma-xillikning bir turi bo'lgan o'simlik dunyosidan foydalanishning tegishli tartibi ham bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tmoqda.

Asosiy e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida, ruxsatnomalar berish sohasida davlat xizmatlarini elektron shaklda taqdim etish maqsadida elektron axborot tizimi joriy etildi.

Bundan tashqari, tabiiy resurslar kadastri sohasida ham ulkan islohotlar aynan raqamlashtirish bilan bog'liqdir. Xususan, 2020–2022-yillarda Milliy geoaxborot tizimida o'simliklar dunyosi davlat kadastrlari obyektlariga oid ma'lumotlarni ochiq geoportalga joylashtirish belgilandi.

7. Yana muhim jihatga e'tibor berish zarurki, raqamlashtirish tendensiyasi nafaqat amaliy ahamiyat kasb etuvchi tashkiliy-huquqiy masalalarda, balki ilmiy-nazariy qarashlarda ham o'z aksini topmoqda.

Masalan, huquqshunos olimi G. Uzakovaning fikricha, "Shaharlar uchun dolzarb muammolarni hal qilish shaharlar ifloslanish darajasiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilishning zamonaviy usullarini hisobga olgan holda hal qilinishi kerak. Shu ma'noda har yili Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan jamoatchilik vakillarini keng jalb qilgan holda shaharlarning "ekologik reytingi"ni yuritish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq" [20].

Mazkur mavzu doirasida O. Narzullayev: "Sivilizatsiya tarixida samarali texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Xalqaro miqyosda aholining o'sishi tabiiy resurslar va qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, barqaror rivojlanish sharoitida ilm-fan yutuqlarini innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda normativ-huquqiy bazani

shakllantirish orqali taraqqiyotga erishish talab etiladi", – deb ta'kidlaydi [21].

8. Hozirgi yangi munosabatlar jarayonida ekologik huquqiy munosabatlarni raqamlashtirishga oid islohotlar asosan avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmoqda. Galdagi maqsad va keyingi bosqich, sohani sun'iy intellekt davri paydo bo'lganligini inobatga olgan holda zamonaviy va amaliy konsepsiyasi asosida tashkil etish hisoblanadi. Zero, raqamlashtirish va sun'iy intellekt tushunchalari o'rtasida sezilarli farq bor. Jumladan, tegishli davlat organlari o'z vakolati doirasida ekologik nazorat jarayonida foydalaniladigan yagona tizimga integratsiyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularga ziyon yetishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash hamda bartaraf etish tizimini yaratish, sun'iy intellekt asosida barcha aktiv jarayonlarni nazorat va tahlil qilish, boshqarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va aholining barcha qatlamlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash sohasiga sun'iy intellektni joriy qilish, uning ilmiy, nazariy-huquqiy jihatlarini o'rganish, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish, fundamental bo'lgan maxsus konsepsiya ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi

Bayon etilgan shu kabi ko'plab dolzarb masalalarni tizimli tarzda hayotga tatbiq etish maqsadida 2021-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu normativ hujjatda sun'iy intellekt sohasida samarali mahalliy ekotizim yaratish va ishlab chiquvchi subyektlar uchun zarur shart-sharoitlar, ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish ko'zda tutilgan.

Ta'kidlanayotgan mavzu ekologiya huquqiga endi kirib kelayotgan yangi va hali

yetarli darajada tadqiqot obyekti bo'lmagan kichik, biroq kelgusida istiqbolli soha bo'lganligini inobatga olgan holda birlamchi va dastlabki ilmiy va amaliy fikrlarni bildirish imkoniyati mavjud.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot tendensiyasi doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasiga joriy etish orqali vakolatli davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati shaffofligini muntazam ravishda oshirib borish natijasida resurslar tejalishi imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkinchidan, raqamlashtirishga oid islohot, birinchi navbatda, sifatli va yuqori samaradorlikka erishish maqsadida har jihatdan inson omilini imkon qadar kamaytirish uchun ilg'or zamonaviy usul va vositalarni davlatning ekologik nazorati jarayoniga tatbiq etishdan boshlanishi lozim.

Uchinchidan, o'simlik dunyosi obyektlarining ekologik sug'urtasida xavf-xatarlarni aniqlash va prognozlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik sug'urtalash bo'yicha har bir davlat iqtisodiy-ekologik imkoniyatidan kelib chiqib o'zining milliy ichki ekologik sug'urta tizimini yaratishga [22] va tabiiy ofatlarni oldindan aniqlash bo'yicha sun'iy intellekt imkoniyatidan foydalanish hamda tabiiy ofatlar bilan bog'liq ma'lumotlarni himoyalashga katta ahamiyat bermoqda.

To'rtinchidan, ekologiya huquqi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirishda ijtimoiy munosabat doirasiga sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelish tendensiyasi mavjudligini prognoz qilgan holda yangi ilmiy-nazariy g'oyalarni shakllantirish muhimdir. Masalan, so'nggi 5 yilda ko'p bora jamoatchilik tomonidan muhokama bo'layotgan va qabul qilinishi rejalashtirilayotgan hujjat – Ekologik kodeks loyihasini, albatta, u yoki bu ekologik huquqiy norma qismida sun'iy intellekt ta'sirini baholagan holda

takomillashtirish nazarda tutilishi kerak. Chunki ilmiy-nazariy g'oyalar qonun ijodkorligi jarayoniga nisbatan oldinroq, tezroq va keng miqyosda shakllanishi talab etiladi. Bayon etilayotgan mavzu yetakchi xorijiy davlatlarning ilmiy-nazariy konsepsiyalarida asosiy ustuvor masala sifatida qaralayotganligi fikrimiz dalilidir [23].

Beshinchidan, barchaga ma'lumki dunyo olimlari tomonidan jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga nisbatan g'oyalar, qarashlar, konsepsiyalar ilgari surilgan [23]. Tahlil etilgan fikrlar va mavjud ekologik siyosatdan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ekologik huquqiy nazariyalarning yangicha yo'nalishi vujudga keldi. Ushbu konsepsiyani shartli ravishda "Ekologik boshqaruvni raqamlashtirish konsepsiyasi" deb ifodalash maqsadga muvofiq. Mazkur konsepsiyaning ichki tuzilmasi murakkabligi, mazmuni va to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun ishlab chiqish uzoq muddat talab etilishi bilan turli g'oyalardan keskin farq qiladi.

9. Texnologiya taraqqiyotda davom etishi va dunyo tobora raqamli bo'lib borishi har qachongidan ham ko'proq ma'lumot ishlab chiqarilishi va almashilishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, innovatsion yechimlarni talab qiladigan misli ko'rilmagan ekologik muammolarga duch kelinmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun atrof-muhitga, xususan, o'simlik dunyosiga oid ma'lumotlarni kiber tahdidlardan himoyalanganligini va kiber-mudofaa vositalari atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiqligini ta'minlashi lozim. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligiga kiberxavfsizlik masalalarini joriy etish yuzasidan tavsiyalarini taklif qilamiz:

birinchidan, atrof-muhit huquqida kiberxavfsizlikka bag'ishlangan maxsus qonunchilikni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu atrof-muhit, tabiiy resurslarga oid ma'lumotlarning kibertahdidlardan himoyalan-

ganligini va kiberxavfsizlik choralari atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga muvofiqligini ta'minlashga yordam beradi;

ikkinchidan, tabiiy obyektlar, jumladan, o'simlik dunyosini muhofaza qilish bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlar uchun kiberxavfsizlik talablariga rioya qilishni talab qiluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yaratish lozim. Bu kiberxavfsizlik nazorati joriy va dolzarbligini ta'minlash uchun muntazam audit va baholashlarni o'z ichiga olishi mumkin;

uchinchidan, ekologik tashkilotlarning samarali kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish uchun tajriba va resurslarga ega bo'lishini ta'minlash uchun ularning salohiyatini oshirish va o'qitishga ko'maklashish muhimdir;

to'rtinchidan, kiberxavfsizlik choralari-ning jahon standartlariga mos kelishini ta'minlash uchun Yevropa Ittifoqining umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) va Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (NIST) kiberxavfsizlik asoslari kabi xalqaro huquqiy yechimlarni qabul qilish, milliy normativ-huquqiy hujjatlarda ifoda etish hamda rag'batlantirish maqsadga muvofiq;

beshinchidan, atrof-muhit va tabiiy obyektlarga oid ma'lumotlarning transchegaraviy uzatilishiga ko'maklashish va turli yurisdiksiyalarda ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga rioya qilish va uzatish jarayonida ayrim ekologik ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlaydigan huquqiy va me'yoriy bazani ishlab chiqish.

Xulosalar

O'simlik dunyosini muhofaza qilishni zonalashtirish eng asosiy islohotlardan biri bo'lishi lozim. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot tendensiyasi doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasiga joriy etish, sohani sun'iy intellekt davri paydo bo'lganligini inobatga olgan holda zamonaviy va amaliy konsepsiyasi asosida tashkil etish, o'simlik dunyosi obyektlarining ekologik sug'urtasida xavf-xatarlarni aniqlash va prognozlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, atrof-muhit huquqida kiberxavfsizlikka bag'ishlangan maxsus qonunchilikni ishlab chiqish, o'simlik dunyosini muhofaza qilish bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlar uchun kiberxavfsizlik talablariga rioya qilishni talab qiluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yaratish kabi masalalarni hal etish zarurdir.

Bildirilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit va tabiiy obyektlarga oid ma'lumotlarni himoya qilish uchun kiberxavfsizlik choralari-ning ko'rilishini va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlarining tegishli kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etishni ta'minlash mumkin.

Umuman olganda, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga soluvchi zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlarning shakl va mazmuni yangicha yondashuv va texnologiyalar ta'sirida keskin burilish yasashi tabiiy holat hisoblanadi.

REFERENCES

1. Bogdanov N.A. Ekologicheskoye zonirovaniye: nauchno-metodicheskiye priyemy [Ecological zoning: scientific and methodological techniques]. Moscow, 2005.
2. Kommentariy k Vodnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Water Code of the Russian Federation]. Ed. O.L. Dubovik. Moscow, 2012, p. 81.
3. Ugolovnyy kodeks Avstrii [Austrian Criminal Code]. Moscow, MAKS Publ., 2001.

4. Ugolovnyy kodeks Respubliki Belarus [Criminal Code of the Republic of Belarus]. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2001.
5. The code is punitive. 2.10.92.7. KM edition updated March 25, 2006. St. Petersburg.
6. STGB. 42 ed. Munich, Beck Publ., 2007.
7. Ugolovnyy kodeks Gollandii [Dutch Criminal Code]. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2001.
8. Ugolovnyy kodeks Ispanii [Spanish Criminal Code]. Eds. N.F. Kuznetsova, F.M. Reshetnikov. Moscow, 1998.
9. Ugolovnyy kodeks Kitayskoy Narodnoy Respubliki [Criminal Code of the People's Republic of China]. Ed. A.I. Korobeyeva. Trans. D.V. Vichikova. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2001.
10. Ugolovnyy zakon Riga [Criminal law Riga]. Business informationacijas birojs, 2000.
11. Kama Codex with introduction. 20th ed., Warsaw, C.H. Beck Publ., 2005.
12. Ugolovnyy kodeks Tunisa [Tunisian Criminal Code]. Trans. V.A. Burkovskaya. Moscow, 2005.
13. Ugolovnyy kodeks Tailanda [Criminal Code of Thailand]. Trans. A. Chetsumona. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2005.
14. Criminal Code of Ukraine. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2001.
15. Swiss Criminal Code. Trans. A.V. Serebrenikova. Moscow, 2000.
16. Japanese Criminal Code. Trans. V.N. Eryomina. St. Petersburg, Legal Center Press Publ., 2002.
17. Dubovik O.L. Ugolovno-pravovaya okhrana okruzhayushchey sredy v FRG [Criminal legal protection of the environment in Germany]. *Environmental Law and Market*, 1994, pp. 229–236.
18. Juravskiy I.M. Yuridicheskaya otvetstvennost' za narusheniye zakonodatel'stva ob okhrane i ispol'zovanii rastitel'nogo mira [Legal liability for violation of legislation on the protection and use of flora]. PhD thesis. Moscow, 2007, pp. 22–23.
19. Axmedshayeva M. Hozirgi zamonda huquq rivojining asosiy tendensiyalari [The main trends in the development of law today]. *Review of Legal Sciences*, 2018, no. 2.
20. Uzakova G. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibi [Legal procedure for the use and protection of natural resources in settlements]. Doctoral dissertation. 2021.
21. Narzullayev O. O'zbekistonda biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improving the legal regulation of the protection and use of biological resources in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 232.
22. Tooth R., Barker G. The Non-Insured: Who, Why and Trends. Report prepared for the Insurance Council of Australia. 2007. Available at: <http://www.insurancecouncil.com.au/>
23. Turkish Catastrophe Insurance Pool (TCIP). 2017. Available at: <http://www.tcip.gov.tr/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.